Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 110-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ANDIJON VILOYATIDA BANDLIK TUZILMASI, NORASMIY BANDLIK VA YASHIRIN ISHSIZLIKNING STATISTIK TAHLILI

IMINOV ZAFARBEK
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
E-mail: z.iminoff@yandex.com
ORCID ID: 0009-0003-9046-8992

Annotatsiya. Maqolada Andijon viloyati misolida bandlik tuzilmasining dinamikasi, norasmiy bandlik, o‘z-o‘zini band qilish va yashirin ishsizlik belgilari statistik baholangan. 2010–2025-yillardagi rasmiy ma’lumotlar hamda 1476 nafar respondent ishtirokidagi so‘rovnoma (2024) tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, 2010–2024-yillarda viloyatda band aholi 20,4 foizga oshgan, bandlikning markazi shahardan tumanlarga siljigan, “Boshqa turdagi xizmatlar” ulushi 12,66 dan 20,41 foizga yetgan. Binar logit modeli oliy ma’lumot (OR = 3,5), erkak jinsi (OR = 2,7), daromad va ish tajribasi rasmiy bandlik ehtimolini oshirishini ko‘rsatdi (McFadden R^2 = 0,312).
Kalit so‘zlar: norasmiy bandlik, yashirin ishsizlik, o‘z-o‘zini band qilish, binar logit, so‘rovnoma, Andijon viloyati, bandlik sifati.

Аннотация. В статье на примере Андижанской области статистически оценены динамика структуры занятости, неформальная занятость, самозанятость и признаки скрытой безработицы. Проанализированы официальные данные за 2010–2025 гг. и опрос 1476 респондентов (2024). В 2010–2024 гг. число занятых в области выросло на 20,4%, центр занятости сместился из областного центра в районы, доля «прочих видов услуг» выросла с 12,66 до 20,41%. Бинарная логит-модель показала, что высшее образование (OR = 3,5), мужской пол (OR = 2,7), доход и стаж повышают вероятность формальной занятости (R^2 Макфаддена = 0,312).
Ключевые слова: неформальная занятость, скрытая безработица, самозанятость, бинарный логит, опрос, Андижанская область, качество занятости.

Abstract. The article statistically assesses the dynamics of the employment structure, informal employment, self-employment and signs of hidden unemployment in Andijan region. Official data for 2010–2025 and a 2024 survey of 1,476 respondents are analysed. In 2010–2024 the number of employed in the region grew by 20.4%, the centre of employment shifted from the regional capital to districts, and the share of “other service activities” rose from 12.66% to 20.41%. A binary logit model shows that higher education (OR = 3.5), male sex (OR = 2.7), income and work experience raise the probability of formal employment (McFadden R-squared = 0.312).
Keywords: informal employment, hidden unemployment, self-employment, binary logit, survey, Andijan region, job quality.

KIRISH

Hududiy mehnat bozorining real holatini faqat rasmiy hisobotlar asosida baholash mumkin emas: korxona va tashkilotlar hisoboti, soliq ma’lumotlari va bandlik xizmatlari yozuvlari rasmiy band aholini aniqlashda nisbatan samarali bo‘lsa-da, norasmiy bandlik, o‘z-o‘zini band qilish va yashirin ishsizlikning haqiqiy ko‘lamini to‘liq aks ettira olmaydi. Norasmiy iqtisodiyot tushunchasining ilmiy asoslanishida K.Xart (1973) va F.Shnayder asarlari muhim o‘rin tutadi[1, 2]; Shnayder va Uilyamsning baholashicha, jahon miqyosida norasmiy iqtisodiyot YaIMning o‘rtacha 23 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 35–50 foizini tashkil etadi [2]. Yashirin ishsizlik esa nominal (rasmiy) bandlikka qaramay

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

mehnat unumdorligi juda past yoki ishchi kuchidan to‘liq foydalanilmayotgan holat sifatida ta’riflanadi [3].

O‘zbekistonda o‘z-o‘zini band qilish tizimi “One ID” platformasi orqali rasmiylashtirilmoqda, ammo amaliyotda bu holat ko‘pincha ixtiyoriy tanlovdan ko‘ra majburiy xarakter kasb etadi: doimiy ish o‘rni bo‘lmagan aholi qatlamlari o‘zini band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishga majbur bo‘lishi mumkin. Natijada yashirin ishsizlik rasmiy statistikada to‘liq aks etmay qoladi. Real ish haqi, yashirin daromadlar, vaqtinchalik bandlik va migratsiya jarayonlari ham yetarlicha ochib berilmaydi. Shu sababli rasmiy manbalar bilan bir qatorda aholining real mehnat faoliyatini bevosita o‘rganuvchi empirik tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud [4].

Andijon viloyati bunday tadqiqot uchun alohida ahamiyatga ega. Viloyat respublikaning eng zich aholili hududi bo‘lib (har 1 km^2 ga 801 kishi), 2024-yilda 1 338,6 ming band aholi bilan respublika bandlarining 9,4 foizini tashkil etgan [5, 6]. Hududiy investitsiya dasturi doirasida 2024-yilda 7,1 trln so‘mlik 774 ta loyiha amalga oshirilib, 42 ming yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan edi; dastlabki hisobotlarga ko‘ra, 6,3 trln so‘mlik 911 ta loyiha ishga tushirilib, 38 737 ta yangi ish o‘rni (reja 92,2 foizi) yaratilgan [7]. Biroq mavjud tadqiqotlarda hudud (viloyat, tuman) darajasida rasmiy, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikni so‘rovnoma hamda ekonometrik usullarni birgalikda qo‘llab baholash masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan [8].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Norasmiy bandlik va yashirin ishsizlik masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, K.Hart norasmiy daromad olish imkoniyatlarini o‘rganib, mehnat bozorida rasmiy sektordan tashqarida shakllanadigan iqtisodiy faoliyatning ahamiyatini asoslab bergan [1]. F. Schneider va C. Williams esa norasmiy iqtisodiyotning iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni, uning ko‘lami va rasmiy iqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etgan [2]. Ushbu yondashuvlar bandlikni faqat rasmiy mehnat munosabatlari orqali emas, balki norasmiy daromad manbalari va mustaqil mehnat faoliyatini ham hisobga olgan holda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Yashirin ishsizlik tushunchasini tahlil qilishda D.W. Pearce tomonidan tayyorlangan iqtisodiy atamalar lug‘atida keltirilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Unda yashirin ishsizlik ish bilan band deb hisoblangan shaxslarning mehnat salohiyatidan to‘liq foydalanilmasligi bilan bog‘liq iqtisodiy holat sifatida izohlanadi [3]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, hududiy mehnat bozorini baholashda band aholi soni bilan bir qatorda ish vaqtidan foydalanish, daromad darajasi, mehnat unumdorligi va ish joyidan qoniqish kabi ko‘rsatkichlarni ham o‘rganish lozim.

O‘zbekiston mehnat bozorini statistik baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda hududiy bandlik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash metodologiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. M.M. Mirzakarimova va B.A. Begalov hududiy mehnat bozorini statistik baholashning uslubiy jihatlarini yoritib,

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

bandlik jarayonlarini hududlar kesimida tahlil qilishning ahamiyatini asoslagan[4]. M.A. Umarovaning tadqiqotida esa O‘zbekiston mehnat bozorini statistik baholashning metodologik jihatlari o‘rganilgan [8]. Ushbu ilmiy ishlar hududiy bandlik dinamikasini baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq Andijon viloyati misolida rasmiy bandlik, norasmiy mehnat faoliyati va yashirin ishsizlik belgilarini yagona empirik yondashuv asosida birgalikda baholash masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab etadi.

Bandlikning rasmiylashuviga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik baholashda D.W. Hosmer va S. Lemeshow tomonidan ishlab chiqilgan logistik regressiya usullari muhim metodologik ahamiyatga ega [9]. J.M. Wooldridge iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik va statistik xulosalarni shakllantirish masalalarini yoritgan [10]. K.E. Train diskret tanlov modellarini rivojlantirib, iqtisodiy subyektlarning muqobil tanlovlarini ehtimollik asosida baholash yondashuvlarini taklif etgan [11]. W.H. Greene esa ekonometrik tahlil usullari, jumladan, ikkilik tanlov modellarining nazariy va amaliy asoslarini keng yoritgan [12]. Mazkur tadqiqotlar ushbu maqolada respondentlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va rasmiy bandlik ehtimoli o‘rtasidagi bog‘liqlikni binar logit modeli yordamida baholash uchun metodologik asos yaratadi.

Hududiy mehnat bozoridagi tarkibiy tafovutlarni aniqlashda B.S. Everitt va hammualliflarning klaster tahliliga oid ilmiy ishlari ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar asosida hududlarni o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra guruhlash imkonini beradi [13]. Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham norasmiy bandlik va gender tafovutlari alohida tahlil qilingan. OECD norasmiy bandlikni baholashda statistik indikatorlar va barqaror rivojlanish maqsadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan [17]. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) esa norasmiy iqtisodiyotda ayollar va erkaklar bandligining o‘ziga xos xususiyatlari, mehnat sharoitlari hamda ijtimoiy himoya masalalarini o‘rgangan [18]. BMT Taraqqiyot dasturining Markaziy Osiyoda gender tengligi bo‘yicha tadqiqotlari ham ayollar iqtisodiy faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [19].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, norasmiy bandlik, yashirin ishsizlik va hududiy mehnat bozori alohida ilmiy yo‘nalishlar sifatida yetarlicha o‘rganilgan. Shunga qaramay, ularni hududiy statistik ma’lumotlar, aholi so‘rovnomasi, klaster tahlili va ekonometrik modellashtirishni birlashtirgan holda kompleks baholashga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqolaning ilmiy yondashuvi Andijon viloyatida bandlikning tarmoq va hududiy tarkibini o‘rganish, norasmiy bandlik hamda yashirin ishsizlik belgilarini empirik aniqlash va rasmiy bandlik ehtimoliga ta’sir etuvchi omillarni binar logit modeli orqali baholashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Andijon viloyati statistika

boshqarmasining 2010–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, 2024-yilda Andijon viloyatida yashovchi 1476 nafar respondent o'rtasida Xalqaro mehnat tashkiloti metodologiyasiga moslashtirilgan so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, Pirsonning χ^2 mezoni va ikkilik logistik regressiya usullari qo'llanilib, rasmiy bandlikka ta'sir etuvchi omillar baholandi. Logistik regressiya modeli yordamida bandlik ehtimoli, shanslar nisbati (OR) va o'rtacha marginal ta'sir (AME) ko'rsatkichlari aniqlandi. Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini baholashda lokalizatsiya koeffitsienti (LQ), hududiy tipologiyasini shakllantirishda esa K-o'rtachalar (K-means) klasterlash usulidan foydalanildi. Barcha hisob-kitoblar Stata 17 dasturida amalga oshirilib, statistik natijalarning ishonchliligi 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bandlik dinamikasi va hududiy tafovutlar.

2010–2024-yillarda respublikada band aholi soni 11 628,4 ming kishidan 14 261,9 ming kishigacha (+22,6 foiz) oshdi. Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 1 112,0 ming kishidan 1 338,6 ming kishigacha, ya'ni 226,6 ming kishiga (+20,4 foiz) ko'paydi (2-jadval); o'sish sur'ati milliy o'rtachadan biroz past bo'lib, viloyatda mehnat bozorining to'yinganlik darajasi nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish Jizzax (146,5 foiz) va Namangan (142,2 foiz) viloyatlarida, eng past o'sish Buxoro viloyatida (103,7 foiz) qayd etildi (1-jadval).

1-jadval


Hududlar kesimida bandlar soni (ming kishi), tanlangan hududlar

Hudud nomi	2010	2021	2024	+/– (ming kishi)	2024/2010, %
O'zbekiston Respublikasi	**11 628,4**	**13 538,9**	**14 261,9**	**+2 633,5**	**122,6**
Qoraqalpog'iston Resp.	580,8	673,2	759,4	+178,6	130,8
Andijon viloyati	**1 112,0**	**1 247,5**	**1 338,6**	**+226,6**	**120,4**
Buxoro viloyati	768,1	801,3	796,7	+28,6	103,7
Jizzax viloyati	381,6	518,4	559,2	+177,6	146,5
Namangan viloyati	815,3	1 098,7	1 159,6	+344,3	142,2
Samarqand viloyati	1 229,9	1 478,3	1 521,1	+291,2	123,7
Farg'ona viloyati	1 340,4	1 511,2	1 563,9	+223,5	116,7
Toshkent shahri	1 153,8	1 364,5	1 424,7	+270,9	123,5

Manba: MSQ O'zR statistik to'plami (2025), KBV yillik hisoboti asosida muallifning hisob-kitoblari.

Bandlik darajasi 2010-yilda Andijon viloyatida 69,3 foizni tashkil etib, respublika o'rtachasidan (66,9 foiz) yuqori edi; 2020-yilda pandemiya ta'sirida viloyatda 66,5 foizgacha, respublikada 66,0 foizgacha pasaydi va ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq 0,5 foiz bandga qisqardi; 2024-yilda viloyatda 70,2 foiz, respublikada 68,3 foiz qayd etilib, tafovut 1,9 foiz bandga kengaydi. Demak, 15 yillik davrda Andijon mehnat bozori respublika bilan hamohang rivojlangan, ammo doimiy ravishda yuqoriroq darajada saqlangan.

Viloyat ichida bandlikning geografik markazi shahardan tumanlarga siljigan (1-rasm). Andijon shahrining viloyat bandligidagi ulushi 2010-yildagi 17,85 foizdan 2025-yilda 13,69 foizgacha kamaydi (shahar bandlari soni 2010-yilga nisbatan 92,3 foizga teng); eng jadal o‘sish Buloqboshi (138,5 foiz), Shahrixon (137,7 foiz) va Oltinko‘l (136,9 foiz) tumanlarida kuzatildi. Asaka tumani ulushi 9,84 foizdan 10,71 foizgacha oshdi. Bu holat viloyat markazida xizmatlar sohasi to‘yinganligi, ishlab chiqarish quvvatlarining shahar atrofidagi tumanlarga ko‘chirilishi va yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi bilan izohlanadi.



Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tuzgan.

1-rasm. Andijon viloyati tuman va shaharlarining viloyat bandligidagi ulushi, 2010 va 2025-yillar (%)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha respublikada 2024-yilda 2010-yilga nisbatan eng yuqori o‘sish axborot va aloqa (koeffitsient 1,86), boshqaruv va yordamchi xizmatlar (1,68), yashash va ovqatlanish (1,46) hamda qurilish (1,32) sohalarida kuzatildi; tog‘-kon sanoatida bandlik deyarli ikki barobar (koeffitsient 0,52), elektr-gaz ta’minotida 0,78 gacha qisqardi. Gender nuqtai nazaridan 2024-yilda bandlarning 60,8 foizini erkaklar, 39,2 foizini ayollar tashkil etdi; jins tafovuti 2010-yildagi 9,0 foiz bandidan 21,6 foiz bandiga kengaydi (2-jadval) [14].

2-jadval

Respublikada bandlarning jins bo‘yicha taqsimoti

Ko‘rsatkich	2010	2016	2018	2020	2022	2024
Jami (ming kishi)	11 628,4	13 298,4	13 273,1	13 236,4	13 812,6	14 261,9
Erkaklar (ming kishi)	6 333,3	7 224,8	7 749,3	7 751,8	8 132,4	8 666,6
Ayollar (ming kishi)	5 295,1	6 073,6	5 523,8	5 484,6	5 680,2	5 595,3
Ayollar ulushi (%)	45,5	45,7	41,6	41,5	41,1	39,2
Jins tafovuti (foiz bandi)	9,0	8,6	16,8	17,0	17,8	21,6

Manba: MSQ O‘zR statistik to‘plami (2025); UNDP Gender Statistics in Uzbekistan (2024).

Jadvaldan ko‘rinadiki, ayollar ulushining asosiy pasayishi 2016–2018-yillarda (45,7 dan 41,6 foizgacha) yuz bergan, keyingi yillarda esa pasayish davom etgan. 2020–2024-yillarda erkaklar bandligi 914,8 ming kishiga, ayollar bandligi esa atigi 110,7 ming kishiga oshdi. Tashqi mehnat migratsiyasi ham bandlik statistikasi uchun muhim omil: xorijda ishlovchi fuqarolar soni 1

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

751,5 ming kishiga yetib, 2010-yildagi darajadan 6 barobar ko‘paygan; viloyatlar orasida Andijon (221,2 ming kishi), Samarqand (263,2 ming) va Farg‘ona (167,7 ming) yetakchilik qiladi [15]. 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida bandlarning ulushi 74,5 foizni tashkil etib, 2014–2016-yillardagi eng yuqori daraja (77,9–78,2 foiz)dan past bo‘ldi [16].

Andijon viloyati bandligining tarmoq tuzilmasi.

2010–2025-yillarda viloyat bandligining tarmoq tarkibi agrar-industrial ko‘rinishdan xizmatlar iqtisodiyoti tomon siljidi (3-jadval). Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida bandlar ulushi 27,10 foizdan 23,64 foizgacha kamaydi: agrosanoat klasterlarining joriy etilishi va unumdorlikning oshishi hisobiga ortiqcha ishchi kuchi boshqa tarmoqlarga o‘tdi. Ishlab chiqarish sanoatida (13,92 dan 12,60 foizgacha) va savdoda (12,82 dan 11,57 foizgacha) ham ulush qisqardi. Eng sezilarli o‘zgarish “Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish” sohasida kuzatildi: uning ulushi 12,66 foizdan 20,41 foizga oshdi (2020-yilda 11,97 foiz edi). Dissertatsiya tahlilida bu o‘sish viloyatda o‘z-o‘zini band qilish va norasmiy faoliyatning rasmiylashishi hamda xizmat ko‘rsatish sohasining diversifikatsiyasi bilan bog‘langan. Ijtimoiy sohalar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi) jami bandlikning taxminan 15–16 foizini ta’minlab kelmoqda, yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi esa juda past: axborot va aloqa 0,17 foiz, moliya va sug‘urta 0,32 foiz.

3-jadval

Andijon viloyati bandligining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, % (tanlangan tarmoqlar)

Iqtisodiy faoliyat turi (IFUT-2)	2010	2015	2020	2025
A. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	27,10	26,96	26,54	23,64
C. Ishlab chiqarish sanoati	13,92	13,45	14,00	12,60
F. Qurilish	7,04	7,24	7,96	7,40
G. Ulgurji va chakana savdo	12,82	12,66	13,26	11,57
H. Tashish va saqlash	4,17	4,40	4,33	3,74
I. Yashash va ovqatlanish	2,13	2,18	2,39	2,40
J. Axborot va aloqa	0,23	0,20	0,16	0,17
K. Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	0,38	0,35	0,35	0,32
O. Davlat boshqaruvi va mudofaa	3,08	2,69	3,01	2,70
P. Ta’lim	8,76	7,70	8,18	8,11
Q. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	5,12	4,51	5,18	4,69
S. Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	**12,66**	**14,94**	**11,97**	**20,41**

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tuzgan (qolgan tarmoqlar jadvalga kiritilmagan).

So‘rovnoma natijalari: ish tanlash motivlari, qoniqish va yashirin ishsizlik belgilari.

Respondentlarning 472 nafari (32,0 foiz) davlat sektorida rasmiy ishlashni, 778 nafari (52,7 foiz) xususiy sektorda ishlashni, 226 nafari (15,3 foiz) esa o‘z biznesini tashkil qilishni ustuvor deb bildirdi (5-jadval). Shaharlarda xususiy sektorni 49,8 foiz, davlat sektorini 36,7 foiz respondent tanlagan; tumanlarda

xususiy sektor ulushi 55,5 foizga, o‘z biznesini tanlaganlar ulushi esa 19,7 foizga teng. Tuman markazlarida yashovchi respondentlarning 73,2 foizi xususiy sektorni tanlagan, o‘z biznesini tashkil qilishni tanlaganlar esa atigi 3 nafar (5,4 foiz) bo‘lib, bu yerda tadbirkorlik infratuzilmasi yetarli rivojlanmaganidan dalolat beradi.

4-jadval

Respondentlar uchun qaysi sohada ishlash ustuvorligi (yashash joyi bo‘yicha, nafar)

Ustuvor soha	Shahar	Tuman	Tuman markazi	Jami
Davlatda rasmiy ishda	331	129	12	472
O‘z biznesini tashkil qilish	121	102	3	226
Xususiy sektorda	449	288	41	778
Jami	**901**	**519**	**56**	**1476**

Manba: muallif so‘rovnomasi (2024).

Davlat sektorini tanlash motivlari. Davlat ishini tanlash sabablarini izohlagan 802 ta javobning 398 tasi (49,6 foiz) “davlat kafolati, ya’ni doimiy barqaror ish o‘rni”, 260 tasi (32,4 foiz) “aniq ish joyi va vaqti”, 102 tasi (12,7 foiz) “belgilangan ish haqi” va 42 tasi (5,2 foiz) “turli xatarlarning kamligi” bilan bog‘liq. Barqaror ish o‘rnini asosiy sabab qilib ko‘rsatganlar eng ko‘p 31–39 yosh guruhida (189 ta) kuzatildi. Demak, davlat sektori ish haqidan ko‘ra barqarorlik va ijtimoiy kafolat uchun tanlanmoqda.

Xususiy sektorni tanlash motivlari. Xususiy sektorni tanlash sabablari bo‘yicha 1191 ta javobda “kelishuv asosida ish haqi va uni oshirish imkoniyati” yetakchi bo‘ldi – 511 ta (42,9 foiz); undan keyin “o‘z ustida ishlash imkoniyati” – 318 ta (26,7 foiz), “ish hajmiga qarab ko‘proq pul topish” – 240 ta (20,2 foiz), “nisbatan erkin ish grafigi” – 122 ta (10,2 foiz) keladi. Jins va motivatsiya tarkibi o‘rtasida statistik ahamiyatli bog‘liqlik aniqlandi ($\chi^2 = 29{,}75$; $df = 3$; $p < 0{,}001$): erkaklar orasida kelishuv asosidagi ish haqi (47,4 foiz) ayollarnikiga (36,5 foiz) nisbatan ko‘proq, ayollar orasida esa o‘z ustida ishlash imkoniyati (34,5 foiz) erkaklarnikiga (21,3 foiz) nisbatan ko‘proq tanlangan. Yosh jihatidan 31–39 va 40–59 yoshlilarda kelishuv asosidagi ish haqi (229 va 192 ta javob), 18–30 yoshlilarda esa o‘z ustida ishlash imkoniyati (148 ta javob) ustun. Ish haqining kelishuv asosida belgilanishi va individual mehnat sharoitlari, shu bilan birga, norasmiy mehnat munosabatlari shakllanishiga ham zamin yaratishi mumkin.

Ish joyidan qoniqish va ishni o‘zgartirishga tayyorlik. Umuman respondentlarning 58,9 foizi (870 nafar) ish joyidan “a’lo”, 29,8 foizi (440 nafar) “yaxshi”, 11,2 foizi (166 nafar) “o‘rtacha” darajada mamnunligini bildirdi. Biroq daromad guruhlari kesimida qoniqish va yashirin ishsizlik belgilari aniq farqlanadi. Boshqa joydan ish taklif qilinsa, 336 nafar (22,8 foiz) respondent hozirgi ishini o‘zgartirishga tayyor, 1140 nafar (77,2 foiz) esa saqlab qolishni afzal ko‘radi. Oylik daromadi 2 mln so‘mdan kam bo‘lganlarning 55,4 foizi, 2–4 mln

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245


so‘m bo‘lganlarning 46,6 foizi ishni o‘zgartirishga tayyor, 5–8 mln so‘mlilarda bu ulush 18,5 foiz, 9–10 mln so‘mlilarda 12,6 foiz, 11–19 mln so‘mlilarda 13,1 foiz, 20 mln so‘mdan yuqori daromadlilarda 17,6 foiz (5-jadval, 2-rasm). Daromad guruhi va ishni o‘zgartirishga tayyorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik ahamiyatli ($\chi^2 = 165{,}85$; $df = 5$; $p < 0{,}001$).

5-jadval

Daromad guruhlari bo‘yicha ishni o‘zgartirishga tayyorlik

Oylik daromad	Ha (nafar)	Yo‘q (nafar)	Jami	Tayyor, %
2 mln so‘mdan kam	51	41	92	55,4
2–4 mln so‘m	103	118	221	46,6
5–8 mln so‘m	89	391	480	18,5
9–10 mln so‘m	33	229	262	12,6
11–19 mln so‘m	41	272	313	13,1
20 mln so‘mdan ko‘p	19	89	108	17,6
Jami	**336**	**1140**	**1476**	**22,8**

Manba: muallif so‘rovnomasi (2024); $\chi^2 = 165{,}85$; $df = 5$; $p < 0{,}001$.



Manba: 5-jadval ma’lumotlari asosida muallif tuzgan.

2-rasm. Daromad guruhlari bo‘yicha ishni o‘zgartirishga tayyorlik ulushi (%)

Ish staji va raqobatga munosabat. Respondentlarning 35,2 foizi (519 nafar) raqobatdan qo‘rqib, doimo o‘z ustida ishlashini, 63,8 foizi (942 nafar) o‘ziga ishonishini, 1,0 foizi (15 nafar) ayrim hollarda tanishlariga ishonishini bildirdi. Ish staji bilan raqobatdan qo‘rqish o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik ahamiyatli ($\chi^2 = 49{,}66$; $df = 6$; $p < 0{,}001$, 7-jadval). Yangi ishchilar orasida raqobatdan qo‘rqish ulushi 42,1 foiz, tajribasi 2 yildan kam bo‘lganlarda 39,1 foiz, 7 yildan ortiq tajribalilarda esa 28,2 foiz; 7 yildan ortiq tajribali respondentlarning 71,5 foizi o‘ziga ishonadi.

6-jadval

Ish staji va raqobatdan qo‘rqish o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ish staji	Raqobatdan qo‘rqadi	O‘ziga ishonadi	Tanishlarga ishonadi	Jami
Yangi ishchi	177 (42,1%)	232 (55,2%)	11	420
2 yildan kam	192 (39,1%)	298 (60,7%)	1	491
4 yildan ortiq	48 (23,6%)	153 (75,4%)	2	203
7 yildan ortiq	102 (28,2%)	259 (71,5%)	1	362
Jami	**519 (35,2%)**	**942 (63,8%)**	**15**	**1476**

Manba: muallif so‘rovnomasi (2024); $\chi^2 = 49,66$; df = 6; $p < 0,001$.

Rasmiy bandlikning tarmoq sifati va hududiy tipologiya.

So‘rovnoma asosida baholangan tarmoq kesimidagi tahlil (7-jadval) bandlik sifatida jiddiy segmentatsiya borligini ko‘rsatdi. Davlat tomonidan tartibga solinadigan va tabiiy monopoliya tarmoqlarida (davlat boshqaruvi, energetika, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash) rasmiy bandlik 90–100 foiz atrofida, ish joyidan qoniqish 70–92 foiz oralig‘ida. Aksincha, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo va yashash-ovqatlanish tarmoqlarida norasmiy va mustaqil band bo‘lganlar ulushi 70–80 foizga yetadi, qoniqish esa 40–50 foiz atrofida. Savdo, yashash va ovqatlanish hamda transport tarmoqlarida o‘z-o‘zini band qilganlar va norasmiy ishlovchilar jami bandlarning yarmidan ko‘pini tashkil etadi.

7-jadval

Andijon viloyati bandligining sifat tarkibi (so‘rovnoma asosidagi baholar, %)

Iqtisodiy faoliyat turi	Rasmiy	Norasmiy	O‘z-o‘zini band qilish	Ish joyidan qoniqish
A. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	25	35	40	45
C. Ishlab chiqarish sanoati	65	25	10	60
F. Qurilish	30	55	15	40
G. Savdo va avtotamirlash	20	45	35	50
H. Tashish va saqlash	35	30	35	55
I. Yashash va ovqatlanish	25	40	35	45
J. Axborot va aloqa	60	10	30	80
K. Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	98	2	0	88
O. Davlat boshqaruvi va mudofaa	100	0	0	92
P. Ta’lim	92	5	3	70
Q. Sog‘liqni saqlash	90	5	5	72
S. Boshqa turdagi xizmatlar	15	30	55	58

Manba: muallif so‘rovnomasi (2024) asosidagi hisob-kitoblar (tanlangan tarmoqlar).

Bu viloyatning yuqori aholi zichligi va tadbirkorlikka moyilligi sharoitida daromad shakllantirish strategiyalari moslashuvchan norasmiy sektorga ko‘proq tayanishini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini band qilish har doim norozilik bilan bog‘liq emas: axborot va aloqa hamda professional faoliyat sohalarida mustaqil (frilans) band bo‘lganlarning qoniqishi 75–80 foizga yetadi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Hududiy tipologiya (K-o‘rtachalar klaster tahlili) Andijon viloyati tuman va shaharlarini to‘rt guruhga ajratdi (8-jadval). Birinchi (yetakchi) klasterga Andijon shahri, Asaka, Shahrixon va Andijon tumanlari kirdi: ularda lokalizatsiya indeksi 1,2 dan yuqori, bandlik darajasi 45 foizdan, rasmiy sektor ulushi 25 foizdan yuqori. To‘rtinchi (inqirozli) klasterga Qo‘rg‘ontepa va Xonobod tushdi: indeks 0,5 dan past, bandlik darajasi 25 foizdan past, rasmiy sektor ulushi 10 foizdan past. Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha lokalizatsiya koeffitsienti 2,3–2,7 ga yetib, ushbu sohada haddan tashqari ixtisoslashuvni ko‘rsatadi.

8-jadval

Andijon viloyati tumanlarining bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha klasterlari

Klaster	Tuman va shaharlar	K_l indeks	Bandlik darajasi	Rasmiy sektor	Tavsiya
1 (yetakchi)	Andijon sh., Asaka, Shahrixon, Andijon	> 1,2	> 45%	> 25%	IT-park, to‘qimachilik klasteri
2 (o‘rta)	Xo‘jaobod, Jalaquduq, Marhamat, Ulug‘nor, Izboskan	0,8–1,2	35–45%	18–25%	Qishloq xo‘jaligi klasteri
3 (qoloq)	Buloqboshi, Bo‘ston, Baliqchi, Oltinko‘l, Paxtaobod	0,5–0,8	25–35%	10–18%	Infratuzilma
4 (inqirozli)	Qo‘rg‘ontepa, Xonobod	< 0,5	< 25%	< 10%	Favqulodda dastur

Manba: MSQ, Andijon viloyat statistika boshqarmasi (2025); Stata 17, K-means.

Demografik bosim ham hududlar bo‘yicha tengsiz (9-jadval).

9-jadval

Yosh guruhlari soni indekslari, 2025/2020 (hudud bo‘yicha)

Hudud	16–17 yosh	55–59 yosh	Izoh
Andijon viloyati	**1,315**	**1,11**	**Jami**
Andijon shahri	0,997	1,08	
Xonobod shahri	1,205	0,95	
Oltinko‘l tumani	1,662	1,10	Eng yuqori (16–17)
Andijon tumani	1,610	1,14	
Baliqchi tumani	1,492	1,16	
Bo‘ston tumani	1,260	1,15	
Buloqboshi tumani	1,339	1,01	
Jalaquduq tumani	1,356	1,11	
Izboskan tumani	1,354	1,16	
Ulug‘nor tumani	1,288	1,17	
Qo‘rg‘ontepa tumani	1,398	1,01	
Asaka tumani	1,287	1,11	
Marxamat tumani	1,179	1,11	
Shahrixon tumani	1,238	1,18	Eng yuqori (55–59)
Paxtaobod tumani	1,325	1,05	
Xo‘jaobod tumani	1,279	1,14	

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

16–17 yoshdagi aholi soni viloyatda 2020-yildagi 88 474 nafardan 2025-yilda 116 327 nafargacha (indeks 1,315) oshdi; eng yuqori o‘sish Oltinko‘l (1,662) va Andijon (1,610) tumanlarida, Andijon shahrida esa o‘sish deyarli kuzatilmadi (0,997). 55–59 yoshdagilar soni 150 751,5 dan 166 790 gacha (indeks 1,11) ko‘paydi; pensiya oldi yoshdagilarning eng yuqori o‘sishi Shahrixon (1,18), Ulug‘nor (1,17), Baliqchi va Izboskan (1,16) tumanlariga to‘g‘ri keladi, Xonobod shahrida esa kamayish (0,95) kuzatiladi. Yosh avlod bandlikka jadal kirib kelayotgan, tajribali ishchi kuchi esa yaqin besh yillikda chiqib ketishga tayyorlanayotgan sharoitda shu ikki oqim o‘rtasidagi nomutanosiblik (31,5 va 11 foiz) rasmiy va barqaror ish o‘rinlariga ehtiyojni oshiradi.

Rasmiy bandlik ehtimolini belgilovchi omillar (binar logit model).

Logit model natijalari (10-jadval) barcha sakkizta omilning rasmiy bandlik ehtimoliga statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi (barchasi uchun $p \le 0{,}002$; deyarli barchasida $p < 0{,}001$). Model umuman ahamiyatli (LR-test, $p < 0{,}001$), McFadden $R^2 = 0{,}312$, to‘g‘ri tasniflash darajasi 84,7 foiz.

10-jadval

Logit model natijalari: rasmiy bandlik ehtimolini belgilovchi omillar (n = 1476)

O‘zgaruvchi	β	Std. xato	z	p	OR	Talqin
Konstanta	–2,847	0,412	–6,912	< 0,001	—	—
Yosh (X_1)	+0,043	0,008	5,375	< 0,001	1,044	+4,4% har yilga
Erkak jinsi (X_2)	+0,986	0,124	7,952	< 0,001	2,680	2,7 marta yuqori
Oliy ma’lumot (X_3)	+1,247	0,163	7,650	< 0,001	3,480	3,5 marta yuqori
Shahar (X_4)	+0,634	0,118	5,373	< 0,001	1,885	1,9 marta yuqori
Ish tajribasi (X_5)	+0,087	0,014	6,214	< 0,001	1,091	+9,1% har yilga
Daromad (X_6)	+0,312	0,048	6,500	< 0,001	1,366	+36,6% har mln so‘mga
Oilaviy ahvol (X_7)	+0,421	0,097	4,340	< 0,001	1,523	1,5 marta yuqori
Xususiy sektor (X_8)	–0,283	0,092	–3,076	0,002	0,754	25% past

Manba: muallif so‘rovnomasi (2024) asosidagi logit hisob-kitoblari, Stata 17. McFadden $R^2 = 0{,}312$; to‘g‘ri tasnif – 84,7%.

Eng kuchli omil – oliy ma’lumot: unga ega shaxslarning rasmiy band bo‘lish shansi boshqalarnikiga nisbatan 3,5 barobar yuqori (OR = 3,48), o‘rtacha marginal ta’sir 28,4 foiz bandini tashkil etadi. Erkak jinsi shansni 2,7 barobarga (AME – 31,2 foiz bandi), shaharda yashash 1,9 barobarga oshiradi. Daromadning har bir qo‘shimcha million so‘mi shansni 36,6 foizga, ish tajribasining har bir yili 9,1 foizga, yoshning har bir yili 4,4 foizga oshiradi; oilali bo‘lish shansni 1,5 barobar ko‘paytiradi. Xususiy sektorda ishlash esa rasmiy bandlik shansini 25 foizga kamaytiradi (OR = 0,754), ya’ni xususiy sektorda norasmiy mehnat munosabatlari hali keng tarqalgan. Natijalar norasmiy bandlik asosan quyi ma’lumotli, yosh, ayol va qishloq joylardagi aholida keng tarqalganini ko‘rsatadi [17, 18].

Ayollar bandligiga munosabat bo‘yicha so‘rov natijalari (11-jadval) madaniy-ijtimoiy to‘siqlarni qo‘shimcha yoritadi. Andijon viloyatida respondentlarning

68,9 foizi ayollar ishlashi kerak deb hisoblaydi, bu Xorazm (81,2 foiz) va Surxondaryo (83,6 foiz) viloyatlaridagidan past; “Nega ayol kishi ishlamasligi kerak?” degan savolga respondentlarning 78,9 foizi “ayolning asosiy vazifasi – oila, bolalari va eri” deb javob bergan, bu viloyatlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi [19].

11-jadval

Ayollar bandligiga munosabat bo‘yicha so‘rov natijalari (%)

Hudud	Ishlashi kerak	Ishlashi shart emas	Zamonaviy: ma’lumotli va mustaqil	Huquqlari kamsitilmaydi
Andijon viloyati	**68,9**	**25,2**	**67,6**	**64,9**
Baliqchi tumani	65,8	31,2	70,1	—
Qo‘rg‘ontepa tumani	68,3	25,5	63,3	—
Jizzax viloyati (taqqoslash)	75,8	23,5	73,9	70,6
Surxondaryo viloyati (taqqoslash)	83,6	11,9	72,3	53,7
Xorazm viloyati (taqqoslash)	81,2	17,1	84,5	62,4

Manba: muallifning sotsiologik-statistik so‘rovnomasi (2024) va adabiyotlar asosida to‘ldirilgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar uchta asosiy xulosani qo‘llab-quvvatlaydi. Birinchidan, Andijon viloyatida bandlik ko‘rsatkichlari respublika o‘rtachasidan yuqori bo‘lsa-da, tarkibiy o‘zgarishlar sifat jihatidan bir xil emas. Qishloq xo‘jaligi va sanoat ulushining qisqarishi “Boshqa turdagi xizmatlar” ulushining 20,41 foizgacha o‘sishi bilan birga kechmoqda, so‘rovnomada esa bu sohada o‘z-o‘zini band qilish (55 foiz) va norasmiy bandlik (30 foiz) ustun. Shu sababli xizmatlar soha ulushining o‘sishini avtomatik ravishda bandlik sifatining yaxshilanishi deb baholash noaniq: bu o‘sish yangi rasmiy ish o‘rinlarini ham, vaqtincha o‘z-o‘zini band qilish shaklidagi bandlikni ham aks ettirishi mumkin. Muallifning o‘z-o‘zini band qilish ko‘pincha majburiy xarakter kasb etayotgani haqidagi gipotezasi [4] shuni bilvosita qo‘llab-quvvatlaydi, ammo uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirish uchun o‘z-o‘zini band qilish sababi bo‘yicha aniq savol kerak.

Ikkinchidan, yashirin ishsizlikning bilvosita indikatorlari – past daromad bilan birga ish joyidan qoniqmaslik va ishni o‘zgartirishga tayyorlik – daromad pasayishi bilan keskin kuchayadi (55,4 foizdan 12,6–18,5 foizgacha), bu esa bandlik darajasi bilan bir qatorda bandlik sifatini kuzatish zarurligini ko‘rsatadi. Ayni paytda eng yuqori daromad guruhida tayyorlik yana 17,6 foizga oshishi yuqori malakali xodimlar yanada yuqori daromadli takliflarga ochiq ekanini bildiradi va bu yashirin ishsizlik emas, mehnat harakatchanligi sifatida talqin qilinishi kerak. Yangi ishchilar orasida raqobatdan qo‘rqishning yuqoriligi (42,1 foiz) yosh kadrlar uchun mentorlik va malaka oshirish dasturlariga ehtiyojni ko‘rsatadi.

Uchinchidan, logit model xalqaro tajribada qayd etilgan qonuniyatlarga mos keladi: oliy ma’lumot, shahar va erkak jinsi rasmiy bandlik ehtimolini oshiradi, norasmiylik esa ayollar, qishloq aholisi va quyi ma’lumotlilar orasida ko‘proq

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

uchraydi [17, 18]. Xususiy sektorda rasmiy bandlik ehtimolining pastligi (OR = 0,754) mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishni rag‘batlantirish choralariga asos bo‘ladi. Ayollar bandligi bo‘yicha natijalar madaniy-ijtimoiy to‘siqlar (oila majburiyatlari) bilan bog‘liq: faqat ish o‘rinlari soni emas, mahalla darajasida moslashuvchan ish jadvallari, bolalarni parvarishlash xizmatlari va kasbiy tayyorlash dasturlari ham zarur.

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat. (1) So‘rovnoma kesma (bir vaqtli) xarakterga ega, 1476 respondent bilan o‘tkazilgan; tanlanma loyihasi va vakillik darajasi (ayniqsa tuman markazlari – 56 nafar) natijalarni butun viloyatga umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. (2) Yashirin ishsizlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanmagan, balki qoniqish va ishni o‘zgartirishga tayyorlik orqali bilvosita baholangan; bu indikatorlar mehnat harakatchanligini ham aks ettirishi mumkin. (3) Tarmoq kesimidagi sifat tarkibi (8-jadval) so‘rovnoma asosidagi baholar bo‘lib, rasmiy statistika bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyoslanmaydi. (4) Logit modelda yosh va ish tajribasi o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin; ko‘p omilli bog‘liqlik (VIF) va model sozlanganligi testlari qo‘shimcha keltirilishi maqsadga muvofiq. (5) 2025-yil ma’lumotlari dastlabki xarakterga ega. (6) Logit model assotsiativ bog‘liqlikni ko‘rsatadi, sababiy ta’sirni emas.

Amaliy jihatdan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda foydalanilishi mumkin: bandlikka ko‘maklashish dasturlarini ayollar, qishloq aholisi va oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan yoshlarga maqsadli yo‘naltirish; xususiy sektorda mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishni rag‘batlantirish; uy xo‘jaliklari bandligi anketasiga ish joyidan qoniqish va ishni o‘zgartirishga tayyorlik savollarini kiritib, yashirin ishsizlikning muntazam indikatorini shakllantirish; to‘rtinchi klaster tumanlari uchun alohida bandlik dasturini ishlab chiqish.

XULOSA

2010–2024-yillarda respublikada band aholi 22,6 foizga, Andijon viloyatida 20,4 foizga oshdi; viloyat respublika bandlarining 9,4 foizini tashkil etadi, bandlik darajasi (70,2 foiz) respublika o‘rtachasidan (68,3 foiz) yuqori. Viloyat ichida bandlikning markazi shahardan tumanlarga siljimoqda, tarmoq tuzilmasi esa xizmatlar tomon o‘zgarmoqda, bunda “Boshqa turdagi xizmatlar” ulushi 20,41 foizga yetdi. So‘rovnoma ($n = 1476$) natijalariga ko‘ra, respondentlarning yarmidan ko‘pi xususiy sektorni afzal ko‘radi, davlat sektori esa asosan barqarorlik va ijtimoiy kafolat uchun tanlanadi; daromadi 2 mln so‘mdan kam bo‘lganlarning 55,4 foizi, 2–4 mln so‘mlilarning 46,6 foizi ishni o‘zgartirishga tayyor ($\chi^2 = 165{,}85$; $p < 0{,}001$), bu yashirin ishsizlik va bandlik sifatining pastligiga ishora qiladi. Binar logit modeli oliy ma’lumot (OR = 3,5), erkak jinsi (OR = 2,7), shahar (OR = 1,9), daromad (har million so‘mga +36,6 foiz) va ish tajribasi (har yilga +9,1 foiz) rasmiy bandlik ehtimolini oshirishini, xususiy sektorda ishlash esa uni 25 foizga kamaytirishini ko‘rsatdi (McFadden $R^2 = 0{,}312$; to‘g‘ri tasnif – 84,7 foiz). Takliflar bandlik dasturlarini maqsadli yo‘naltirish, rasmiylashtirishni rag‘batlantirish va yashirin ishsizlikni muntazam kuzatish indikatorini joriy etishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hart K. Informal Income Opportunities and Urban Employment in Ghana // Journal of Modern African Studies. – 1973. – Vol. 11, No. 1. – P. 61–89.

2. Schneider F., Williams C. The Shadow Economy. – London: Institute of Economic Affairs, 2013. – P. 14–18.

3. Pearce D.W. (ed.) Macmillan Dictionary of Modern Economics. 4th ed. – Basingstoke: Macmillan, 1992. – P. 187.

4. Mirzakarimova M.M., Begalov B.A. O‘zbekistonda hududiy mehnat bozorini statistik baholash metodologiyasi. – Toshkent: TDIU, 2021. – 158 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mintaqaviy statistika: Andijon viloyati. 2025-yil. – URL: https://stat.uz/uz/regions/andijan.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-dekabrdagi “Andijon viloyatini 2025–2030-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-123-son Farmoni // Xalq so‘zi. – 2024. – 29-dekabr.

7. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Andijon viloyatida bandlikni ta’minlash bo‘yicha 2024-yilgi yillik hisobot. – Toshkent: KBV, 2025. – 38 b.

8. Umarova M.A. O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorini statistik baholashning uslubiy jihatlari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 74 b.

9. Hosmer D.W., Lemeshow S. Applied Logistic Regression. 3rd ed. – New York: Wiley, 2013. – 528 p.

10. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. 7th ed. – Mason, OH: South-Western, 2020. – P. 571–598.

11. Train K.E. Discrete Choice Methods with Simulation. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P. 34–45.

12. Greene W.H. Econometric Analysis. 8th ed. – New York: Pearson, 2018. – P. 662–690.

13. Everitt B.S. et al. Cluster Analysis. 5th ed. – London: Wiley, 2011. – 330 p.

14. MSQ O‘zR. Jinsi bo‘yicha statistik to‘plam: 2010–2024-yillar. – Toshkent: MSQ, 2025. – 56 b.; UNDP. Gender Statistics in Uzbekistan. – Tashkent: UNDP, 2024. – P. 14.

15. World Bank. Uzbekistan – Labour Force, Jobs, and Migration Report. – Washington DC: World Bank, 2024. – P. 41–45.

16. MSQ O‘zR. Kichik tadbirkorlik va xususiy sektor bandligi 2010–2024-yillar. – Toshkent: MSQ, 2025.

17. OECD. Informal Employment and the SDGs: Measuring Progress. – Paris: OECD Publishing, 2024. – P. 22–26.

18. ILO. Women and Men in the Informal Economy. 4th ed. – Geneva: ILO, 2023.

19. UNDP. Gender Equality and Women’s Empowerment in Central Asia. – New York: UNDP, 2024. – P. 47–51.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy